

TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti sixologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Egamberdiyev Farxod Tuxtayevich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Jonqobilova Farida Husan qizi

Email:faridajonqobilova093@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda zamonaviy psixologik yondashuvlarga bag'ishlangan. Unda bolalar xulq-atvoridagi muammolarning ijtimoiy-psixologik faktorlari ochib berilgan hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilashga doir tavsiyalar ilgari surilgan.

KALIT SO'ZLAR: tarbiyasi qiyin o'quvchi, deviant xulq-atvor, psixologik korreksiya, pedagogik mahorat, motivatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, individual yondashuv

АННОТАЦИЯ: Данная статья посвящена современным психологическим подходам к работе с учащимися с трудностями в обучении. В ней раскрываются социально-психологические факторы поведенческих проблем у детей и предлагаются рекомендации по улучшению сотрудничества между учителями и учащимися.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: учащийся с трудностями в обучении, девиантное поведение, психологическая коррекция, педагогические навыки, мотивация, социальная адаптация, индивидуальный подход.

ANNOTATION: This article is devoted to modern psychological approaches in working with students with learning difficulties. It reveals the socio-psychological factors of children's behavioral problems and puts forward recommendations for improving cooperation between teachers and students.

KEYWORDS: student with learning difficulties, deviant behavior, psychological correction, pedagogical skills, motivation, social adaptation, individual approach.

O'smirlik davriga kelib, ta'lim jarayonida o'quvchilarning aqliy faoliyati taraqqiyotida muhim siljishlar yuz beradi. Ularning jismoniy rivojlanishi, jinsiy balog'atga yetishi psixikasida keskin o'zgarishni vujudga keltiradi. O'quv fanlarning ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi fikr yuritishni jadallashtiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ma'lum bosqichiga ko'tarilgan tafakkur o'smirlik

davriga kelib o‘zining yana bir yuqori pallasiga ko‘tariladi. O‘qitish jarayonida ularda o‘rganilishi zarur bo‘lgan materiallarni analiz va sintez qilish, ya’ni analitik-sintetik faoliyat hamda mavhum tafakkur jarayonlari jadal sur‘atlar bilan taraqqiy eta boshlaydi. Tafakkurning rivojlanishi uchun mazkur yosh davrida matematika, ona tili, geografiya, fizika, biologiya kabi fanlar muhim imkoniyatlar yaratib beradi.[1.159-160]

O‘smirlik davriga kelib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning aqliy faoliyati taraqqiyotida muhim siljishlar yuz beradi. Ularning jismoniy rivojlanishi, jinsiy balog‘atga yetishi psixikasida keskin o‘zgarishni vujudga keltiradi. O‘quv fanlarning ko‘payishi, axborotlar tarmog‘ining kengayishi fikr yuritishni jadallashtiradi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ma’lum bosqichiga ko‘tarilgan tafakkur o‘smirlik davriga kelib o‘zining yana bir yuqori pallasiga ko‘tariladi. O‘qitish jarayonida ularda o‘rganilishi zarur bo‘lgan materiallarni analiz va sintez qilish, ya’ni analitik-sintetik faoliyat hamda mavhum tafakkur jarayonlari jadal sur‘atlar bilan taraqqiy eta boshlaydi. Tafakkurning rivojlanishi uchun mazkur yosh davrida matematika, ona tili, geografiya, fizika, biologiya kabi fanlar muhim imkoniyatlar yaratib beradi.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning xatti-harakatlarini ijobiy yo‘nalishga burib yuborish uchun ularda mas’uliyat, g‘urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini, tirik burchakni boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy fe‘l-atvorlarini kamaytirish mumkin. Ularni o‘zlari qiziqqan to‘garaklarga jalb qilish orqali o‘qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo‘qolib boradi.

Tarbiyasi qiyin o‘smir o‘quvchilarni qayta tarbiyalash uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasi.

I. Shaxsning biologik nuqsonlari:

- a) sezgi organlarining kamchiliklari;
- b) o‘qishga salbiy ta’sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi;
- v) psixopatologik ojizliklar.

II. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

- a) aqlning bo‘sh o‘sganligi;
- b) irodanning zaifligi;
- v) shaxsda hissiyotning kam rivojlangani;
- g) zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjudmasligi;
- d) o‘smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi.

III. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar:

- a) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;

b) o‘smirning o‘qituvchi, sinf jamoasi va oila a‘zolari bilan muloqotidagi zaifliklar;

v) mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar;

g) bo‘sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar.

IV. Shaxsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

a) bilimlar, maxsus ko‘nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar;

b) ta‘lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarining yetishmasligi.

V. Maktab ta‘limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

a) ta‘lim jarayonida bilimlar va xatti-harakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o‘quv qo‘llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va hokazolar;

b) maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar o‘qituvchining o‘smirga xayrixoh emasligi, o‘quvchining ikkilanishi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o‘z o‘rnini topa olmaslik va boshqalar.[2.158-159]

Tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bilan ishlash pedagogdan nafaqat sabr, balki chuqur psixologik bilim va strategik yondashuvni talab qiladi. Bunday o‘quvchilar bilan samarali til topishish va ularni ijobiy tomonga yo‘naltirish zarur.

Tarbiyasi qiyinlarni o‘rganishda kinolavhalar, yuridik varaqa, ishontirish, rag‘batlantirish, bo‘ysundirishdan, qo‘rqitish, “sun‘iy qiyin holatni yaratish” singari usullardan foydalaniladi. Shulardan ayrimlarining mohiyatiga qisqacha to‘xtalamiz.

Odatda novella, voqea, hikoya, sarguzasht, ocherk kabi adabiy asarlardan foydalanish o‘smirlar xatti-harakatining sabablarini o‘rganishda yaxshi samara beradi. O‘qituvchi, sinf rahbari yoki ichki ishlar xodimlari tomonidan tarbiyasi qiyin o‘smirlarga tegishli asardan parcha o‘qib beriladi, so‘ng ularda qanday qo‘zg‘alish yoki ta‘sirlanish paydo bo‘layotganligi kuzatiladi. Tajriba qoidasiga binoan, o‘qilgan parchada o‘smirlarning sarguzashti, ajoyibot va g‘aroyibotlar o‘z aksini topishi shart.

Agar usul o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsata olmasa boshqa vositalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Navbatdagi bosqichda ulardan o‘qilgan asar personaji yoki bosh qahramonining o‘rnida bo‘lganida qanday ish tutishi so‘raladi. Shu yo‘l bilan har bir o‘smirni, qanday hodisalar qiziqtirishi va unda qanday salbiy xatti-harakat yoki illat mavjudligi aniqlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqotda har bir o‘smirdan asarning bosh obrazi yoki personajiga munosabatini so‘rashi lozim. Chunki shaxsiy mulohazalar zaminida o‘smirning ruhiy dunyosidagi turli kechinmalar aks etadi. Shu tufayli ularning nojo‘ya xatti-harakatlari nimalar bilan bog‘liq ekanligi o‘qituvchiga ayon bo‘ladi.

Tajriba o‘tkazishda matnni o‘qiganda psixologik pauzaga, ravon ohangga, o‘qish sur‘ati va ritmiga alohida e‘tibor berish lozim. Ana shu qoidalarga rioya qilinsagina matnning ta‘siri ortadi, o‘smirdagi muayyan kechinmalarning tashqi ifodasi tez ko‘riladi. O‘smirlar xususiyatiga mos matnlarni tanlash, ularning hajmiga va mazmuniga e‘tibor berish alohida ahamiyat kasb etadi. Tanlangan matnlar tarbiyasi

qiyin o‘smirlarning o‘ziga xos va yosh xususiyatlariga, ichki imkoniyatlariga mutlaqo mos bo‘lishi shart.

Xulosa: "Qiyin" o‘quvchi — bu aslida o‘z muammolarini qanday yechishni bilmayotgan va yordamga muhtoj boladir. Unga dushman sifatida emas, "yo‘lini yo‘qotgan sayyoh" sifatida qarang. [3.156-157]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adler A. Praktika i teoriya individualnoy psixologii. – M.: 1995.
2. Alperovich V. Sotsialnaya gerontologiya. Rostov N/D, Feniks, 1997. – 576 s.
3. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – M.: Aspekt-Press, 2003.
4. Gaziev E.G. Psixologiya visshey shkoli. Tashkent, Universitet, 2006. – 132 s.
5. Gaziev E.G. Samoupravlenie uchebnoy deyatelnostyu obuchayushixsya. Tashkent, Universitet, 2008. – 132 s.
6. Djakupov S.M. Psixologicheskaya struktura protsessa obucheniya. Almati, 2004. – 312 s.
7. G‘oziev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). Toshkent, "O‘qituvchi", 1994. – 224 b.
8. G‘oziev E. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, Universitet, 1997. – 80 b.
9. G‘oziev E. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. Toshkent, Universitet, 2003. – 124 b.
10. G‘oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2006. – 164 b.
11. G‘oziev E. Psixologiya tarixi sahifalari. Toshkent, "Fan", 2006. – 74 b.
12. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010. – 544 b
13. SHAXSNING IRODAVIY SIFATLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNIN PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. EF Tuxtayevich PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI 17 (02), 135-137
14. DIQQATNING CHET TILINI O‘RGANISHDAGI AHAMIYATI. EF Tuxtayevich, U Niginabonu. CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY 1 (7), 789-794
15. KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILARINING EMOTSIONAL HOLATI VA UNING O‘QISHGA TA’SIRI/ EF Tuxtayevich. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI 3 (5), 386-389
16. IJTIMOIIY HAYOTDA SHAXSLAR O‘RTASIDA O‘ZARO PSIXOLOGIK MUAMMOLAR. EF Tuxtayevich. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR 1 (5), 273-376
17. ВЛИЯНИЕ ТЕМПЕРАМЕНТА НА ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ СТИЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. Ф Зиёхиддинова, ФТ Эгамбердиев. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 4 (4), 40-43
18. СПОРТЧИЛАРДА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ-ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА. ФТ Эгамбердиев. PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет 1, 116-118